

**REVMATIZM VA HOMILADORLIK: XAVF  
OMILLARI VA MONITORING**

*Berdiyorova Gulziyra Ziyomiddinovna  
Osiyo Xalqaro Universiteti talabasi*

**Abstract.** Rheumatic diseases, including systemic lupus erythematosus (SLE), rheumatoid arthritis (RA), antiphospholipid syndrome (APS), and scleroderma, can significantly impact maternal and fetal health during pregnancy. Hormonal and immunological changes during pregnancy may alter the clinical course of these autoimmune conditions, leading to disease flares, preeclampsia, miscarriage, preterm birth, and intrauterine growth restriction. This article comprehensively covers the risk factors of pregnancy in the context of rheumatic diseases, management strategies, and monitoring methods. Pre-pregnancy disease remission, the use of safe medications, and a multidisciplinary approach with regular medical follow-up are of critical importance. Based on modern clinical research and statistical data, the article provides recommendations for the successful management of pregnancy in women with rheumatic diseases.

**Keywords:** rheumatism, pregnancy, autoimmune diseases, risk factors, monitoring, multidisciplinary approach, systemic lupus erythematosus, rheumatoid arthritis.

**Annotatsiya.** Revmatik kasalliklar, jumladan, tizimli qizil yugurik (SLE), revmatoid artrit (RA), antifosfolipid sindromi (APS) va sklerodermiya kabi autoimmun holatlar homiladorlik davrida ona va homila salomatligiga jiddiy ta'sir ko'rsatishi mumkin. Homiladorlikning gormonal va immunologik o'zgarishlari ushbu kasalliklarning klinik kechishini o'zgartirib, kasallik faollashishi, preeklampsiya, homila tushishi, muddatidan oldin tug'ruq va intrauterin rivojlanishning sekinlashishi kabi xavf omillarini keltirib chiqaradi. Ushbu maqolada revmatik kasalliklar fonida homiladorlikning xavf omillari, ularni boshqarish strategiyalari va monitoring usullari keng yoritiladi. Homiladorlikdan oldin kasallikni remissiyaga keltirish, xavfsiz dori-darmonlardan foydalanish va multidisiplinar yondashuv orqali muntazam tibbiy kuzatuv muhim ahamiyatga ega. Maqola, shuningdek, zamonaviy klinik tadqiqotlar va statistik ma'lumotlarga asoslanib, revmatik kasalliklarga chalingan ayollar uchun homiladorlikni muvaffaqiyatli boshqarish bo'yicha tavsiyalar beradi. Kalit so'zlar: revmatizm, homiladorlik, autoimmun kasalliklar, xavf omillari, monitoring, multidisiplinar yondashuv.

**Kalit so'zlar:** revmatizm, homiladorlik, autoimmun kasalliklar, xavf omillari, monitoring, multidisiplinar yondashuv, tizimli qizil yugurik, revmatoid artrit

**Kirish.** Revmatizm so‘zi mushak-skelet tizimi, bo‘g‘imlar, biriktiruvchi to‘qimalar va immun tizimi bilan bog‘liq bo‘lgan surunkali yallig‘lanish kasalliklarini o‘z ichiga oladi. Bunga revmatoid artrit, tizimli qizil yugurik, antifosfolipid sindromi, sklerodermiya va boshqa kasalliklar kiradi. Homiladorlik davrida ushbu kasalliklar ona va homilaning salomatligiga ta’sir qilishi mumkin bo‘lgan o‘ziga xos xavf-xatarlarni keltirib chiqaradi. Homiladorlikning gormonal va immunologik o‘zgarishlari revmatik kasalliklarning kechishiga ta’sir qilib, kasallikning faollashishi, asoratlar yuzaga kelishi yoki remissiyaga o‘tishiga olib kelishi mumkin. Shu sababli, revmatik kasalliklari bo‘lgan ayollarning homiladorligi puxta rejalshtirish, doimiy tibbiy kuzatuv va jamoaviy yondashuvni talab qiladi. Ushbu bo‘limda revmatizm va homiladorlikning o‘zaro ta’siri, xavf omillari, davolash strategiyalari va monitoring usullari keng yoritiladi.

Revmatizm — asosan biriktiruvchi to‘qimalarni shikastlaydigan, ko‘p hollarda yurak, bo‘g‘imlar, teri va markaziy asab tizimini o‘z ichiga oluvchi autoimmun kasallikdir. Homiladorlik esa, ayol organizmida fiziologik va gormonal o‘zgarishlar bilan kechadigan murakkab davr bo‘lib, ko‘plab kasalliklar, jumladan, revmatik kasalliklarning klinik ko‘rinishiga bevosita ta’sir ko‘rsatadi.

Ayollar revmatik kasalliklarga nisbatan erkaklarga qaraganda ko‘proq moyil bo‘ladi. Ayniqsa, sistemali qizil volchanka (SLE), revmatoid artrit (RA), sistemali sklerodermiya, Sjögren sindromi kabi surunkali autoimmun kasalliklar ko‘pincha reproduktiv yoshdagи ayollarda uchraydi. Bu holat esa, bevosita tug‘ilish darajasi, homiladorlikning davom etishi, homila salomatligi va ona xavfsizligiga jiddiy ta’sir ko‘rsatadi.

Homiladorlik davrida immunitet o‘zgaradi — bu tabiiy jarayon bo‘lib, onaning organizmi homilani rad etmasligi uchun immunitetning ayrim qismlarida susayish yuz beradi. Shu sababli, autoimmun kasalliklar har xil tarzda o‘zgaradi: ba’zilarida remissiya (kasallik belgilari kamayadi), boshqalarida esa aktivlik kuchayadi. Misol uchun, RA ko‘pincha homiladorlik davrida yengillashsa, SLEda kasallik kuchayishi kuzatiladi.

Revmatik kasalliklarga chalingan ayol homiladorlikni rejalshtirishdan avval kasallikni to‘liq baholashi, xavf omillarini aniqlashi va profilaktik choralarni ko‘rishi zarur. Bu esa ko‘p tarmoqli yondashuvni, jumladan, revmatolog, akusher-ginekolog, neonatolog, va boshqa mutaxassislar hamkorligini talab etadi.

Shunday qilib, revmatizm va homiladorlik bir-biriga bevosita ta’sir qiluvchi holatlar bo‘lib, bu ikki muhim tushunchani o‘zaro bog‘liq holda tahlil qilish va boshqarish bugungi zamonaviy tibbiyotning dolzarb masalalaridan biridir.

### **Revmatik kasalliklar fonida homiladorlik xavflari.**

Revmatik kasalliklar fonida homiladorlikni boshqarish murakkab va ko‘p qirrali muammodir. Eng avvalo, kasallikning surunkali, o‘zgaruvchan xarakteri uni

homiladorlik kabi dinamik jarayonga yomon moslashtiradi. Homilador ayollarda revmatik kasalliklar quyidagi asosiy xavf omillarini keltirib chiqaradi:

**Homila tushishi** – Ayniqsa, SLE bilan kasallangan ayollarda homila erta tushish xavfi yuqori. Bu antiphospholipid sindromi (APS) mavjudligi bilan ham bog‘liq bo‘lishi mumkin. APS, tromboz xavfini oshiradi va platsentaga qon oqimini buzadi.

**Preeklampsiya va gestatsion gipertenziya** – Ba’zi revmatik kasalliklar, xususan, lupus, homiladorlik davrida qon bosimining ko‘tarilishi, buyraklar faoliyatining buzilishi va proteinuriya bilan kechuvchi preeklampsiyani rivojlanishiga sabab bo‘ladi.

**Muddatidan oldin tug‘ruq** – Revmatik kasallik aktiv bo‘lsa, erta tug‘ilish xavfi ortadi. Bu esa nafaqat onaga, balki tug‘ilajak bolaning o‘sish va rivojlanishiga salbiy ta’sir ko‘rsatadi.

**Intrauterin o‘sishdan qolish (IUGR)** – Lupus yoki revmatoid artrit bilan kasallangan homilador ayollarda homila rivojlanishining sekinlashuvi kuzatiladi, bu esa chaqaloqning tug‘ilgan paytdagi og‘irligini kamaytiradi.

**Yurak nuqsonlari** – Revmatoid kasalliklar yurakka salbiy ta’sir ko‘rsatishi mumkin. Agar ona revmatik yurak kasalligiga chalingan bo‘lsa, homiladorlik yurak faoliyatiga yuklama bo‘ladi.

**Dori vositalarining teratogenligi** – Ko‘pgina revmatik kasallikkarda ishlatiladigan dori vositalari, masalan, metotreksat, siklofosfamid, homilaga salbiy ta’sir ko‘rsatishi mumkin. Bu esa dori vositalarini ehtiyyotkorlik bilan tanlashni talab qiladi.

Muammo shundaki, ayrim hollarda ayollar revmatik kasalliklari haqida bexabar bo‘ladi yoki uni yetarlicha davolamaydi. Shuning uchun ham homiladorlik davrida kasallikni kech aniqlash va muvofiqlashtirilmagan davo taktikasi ona va bola hayoti uchun xavf tug‘diradi. Bu esa yurtimizda revmatik kasalliklar bo‘yicha oldini olish ishlarining kengaytirilishi va monitoring tizimining takomillashtirilishini talab qiladi.

### **Monitoring va tibbiy nazorat muhim jihatlari**

Homiladorlikni xavfsiz o‘tkazish uchun revmatik kasallikka ega ayollarda muntazam monitoring va puxta tayyorgarlik zarur. Bu rivojlanishning asosiy yo‘nalishlarini tashkil qiladi:

**Homiladorlikni rejallashtirish:** Revmatik kasallik aktiv fazada bo‘lmagan, ya’ni remissiyada bo‘lgan holatdagina homiladorlik tavsiya etiladi. Ideal holatda, kasallik kamida 6 oy davomida remissiyada bo‘lishi kerak.

**Tibbiy ko‘riklar chastotasi:** Bunday ayollarda revmatolog va ginekolog ko‘rikлari oyiga kamida bir marotaba amalga oshirilishi kerak. Bunda qon tahlillari, buyrak faoliyati, yurak tekshiruvi va autoimmun markerlar baholanadi.

**Laborator tahlillar:** ANA (antiyadron antitelalar), dsDNA, C3-C4 kompleman komponentlari, lupus antikoagulyanti, anticardiolipin antitelalari, va boshqa ko‘rsatkichlar muntazam monitoring qilinadi.

**Homila holatini kuzatish:** UTT (ultratovush tekshiruvi) orqali homila o'sishi, yurak urishi va platsenta holati nazorat qilinadi. Doppler sonografiyasi yordamida qon aylanishi baholanadi.

**Dori-darmonlar nazorati:** Homilaga zarar yetkazmaydigan dorilar (masalan, hidroksixloroxin, azatioprin, ba'zida sulfasalazin) bilan davolash davom ettiriladi. Teratogen ta'sirga ega dorilar homiladorlikdan oldin bekor qilinadi.

**Multidisiplinar yondashuv:** Revmatolog, ginekolog, neonatolog, laborator mutaxassis va zaruratga qarab kardiolog yoki nefrolog ishtirokida konsiliumlar tashkil etiladi.

Monitoringning asosiy maqsadi — ona va bola hayotini xavfsiz tarzda davom ettirish, kasallik avj olishining oldini olish, tug'ruqni optimal muddatda, optimal sharoitda amalga oshirishdan iborat. Bu borada ilg'or mamlakatlarda qo'llanilayotgan "high-risk pregnancy" monitoring protokollari o'rnak bo'la oladi.

### **Klinik holatlar, statistikalar va zamonaviy yondashuvlar**

So'nggi yillarda olib borilgan tadqiqotlar revmatik kasallikka chalingan ayollar homiladorligi bo'yicha muhim ma'lumotlarni taqdim etdi. Misol uchun, AQShdagi *National Institutes of Health* tadqiqotlariga ko'ra, lupus bilan og'riyan ayollarda erta tug'ruq xavfi 25–40% gacha yuqori bo'lib, normal homiladorlikka nisbatan ancha yuqori ko'rsatkichdir. Klinik tajribalar shuni ko'rsatmoqdaki, kasallikni remissiyada ushlab turilgan hollarda sog'lom bola tug'ilishi ehtimoli 80% dan yuqori bo'ladi. Shu bilan birga, antiphospholipid sindromi bo'lgan ayollarga antikoagulyantlar (heparin, aspirin) buyurilganda homiladorlik muvaffaqiyatli tugaydi.

Zamonaviy tibbiyotda quyidagi yondashuvlar keng qo'llanilmoqda:

**Risk stratifikatsiyasi** – Har bir bemor xavf omillariga qarab alohida baholanadi. Bu esa individual monitoring strategiyasini ishlab chiqishga imkon beradi.

**Genetik testlar** – Ba'zida revmatik kasalliklar irsiy omillarga bog'liq bo'lganligi uchun genetik maslahatlar tavsiya etiladi.

**Autoimmun kasalliklar uchun biomarkerlar** – SLE uchun dsDNA, RA uchun RF va anti-CCP markerlar yordamida kasallik faolligi monitoring qilinadi.

**EHM tizimlari asosida monitoring** – Rivojlangan davlatlarda elektron monitoring tizimlari orqali homilador ayollar holati real vaqt rejimida kuzatiladi.

Shuningdek, so'nggi klinik tadqiqotlar shuni ko'rsatmoqdaki, revmatik kasalliklar immunoterapiya va biopreparatlar yordamida samarali boshqarilmoqda. Ammo bularning homiladorlik davrida xavfsizligi bo'yicha izlanishlar davom etmoqda.

### **Tizimli yondashuv va kelajak strategiyasi**

Yuqarida keltirilgan muammolarni inobatga olib, quyidagi takliflar revmatik kasalliklarga chalingan homilador ayollarda xavfsizlikni ta'minlashda muhim ahamiyatga ega bo'lishi mumkin:

**Homiladorlikni rejalashtirish markazlari** – Revmatizm bilan og‘rigan ayollar uchun alohida rejalashtirish va maslahat markazlari tashkil etilishi lozim.

**Multidisiplinar guruuhlar** – Respublika va viloyat miqyosida revmatolog-ginekolog-neonatolog konsiliumlari doimiy faoliyat yuritishi zarur.

**Mahalliy protokollarni ishlab chiqish** – Sog‘liqni saqlash tizimida revmatik kasalliklarga chalingan homiladorlar uchun alohida klinik yo‘riqnomalar ishlab chiqilishi kerak.

**Malaka oshirish dasturlari** – Oilaviy shifokorlar, ginekologlar va revmatologlar uchun revmatizm va homiladorlik bo‘yicha maxsus treninglar tashkil etilishi lozim.

**Monitoring tizimini raqamlashtirish** – Homiladorlik holatlari va kasallik monitoringi yagona elektron platforma orqali yuritilishi samaradorlikni oshiradi.

**Ijtimoiy va psixologik yordam** – Kasallik tufayli psixologik bosim ostida bo‘lgan ayollar uchun ijtimoiy yordam dasturlari ishlab chiqilishi lozim.

Xulosa qilib aytganda, revmatik kasalliklar fonida homiladorlik — zamonaviy tibbiyot uchun murakkab, ammo nazorat qilinadigan jarayondir. Ilmiy asoslangan yondashuv, multidisiplinar hamkorlik va bemorga individual yondashuv bu boradagi muammolarni yengib o‘tishga xizmat qiladi.

#### Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. **Abduazizova, N. X., Abdullaeva, N. X., & Samaraxonova, Sh. J. (2022).** Homiladorlik davrida tizimli qizil yuguruk kasalligining kechishi va davolash tamoyillari. **Toshkent Medical Academy Repository.**
2. **Andreoli, L., Bertsias, G. K., Agmon-Levin, N., Brown, S., Cervera, R., Costedoat-Chalumeau, N., ... Tincani, A. (2017).** EULAR recommendations for women’s health and the management of family planning, assisted reproduction, pregnancy and menopause in patients with systemic lupus erythematosus and/or antiphospholipid syndrome. **Annals of the Rheumatic Diseases**, **76(3)**, 476–485. <https://doi.org/10.1136/annrheumdis-2016-209770>
3. **Buyon, J. P., Kim, M. Y., Guerra, M. M., Laskin, C. A., Petri, M., Lockshin, M. D., & Branch, D. W. (2015).** Predictors of pregnancy outcomes in patients with lupus: A prospective study. **Annals of Internal Medicine**, **163(3)**, 153–163. <https://doi.org/10.7326/M14-2235>
4. **Clowse, M. E. B. (2007).** Lupus activity in pregnancy. **Rheumatic Disease Clinics of North America**, **33(2)**, 237–252. <https://doi.org/10.1016/j.rdc.2007.03.003>
5. **Clowse, M. E. B., Jamison, M., Myers, E., & James, A. H. (2008).** A national study of the complications of lupus in pregnancy. **American Journal of Obstetrics and Gynecology**, **199(2)**, 127.e1–127.e6. <https://doi.org/10.1016/j.ajog.2008.03.012>

6. de Jesus, G. R., Mendoza-Pinto, C., de Jesus, N. R., Dos Santos, F. C., Klumb, E. M., & Levy, R. A. (2014). Understanding and managing pregnancy in patients with lupus. **Autoimmune Diseases**, 2014, Article 943490. <https://doi.org/10.1155/2014/943490>
7. Giles, I., Yee, C. S., & Gordon, C. (2019). Managing pregnancy in systemic lupus erythematosus. **BMJ**, 367, l5877. <https://doi.org/10.1136/bmj.l5877>
8. To‘lqinov, I. M., & Yulchiyev, A. B. (2023). Revmatizm kasalligini davolashda ishlatiladigan antibiotiklarning kimyoviy tarkibi va S vitaminining ahamiyati. **Innovative Development in Educational Activities**, 2(7), 247–253. [openidea.uz](http://openidea.uz)